

**KARIES HAQIDA TUSHUNCHA.KARIES KOVAKLARINING  
TASNIFI**

*Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti*

*Stomatologiya yo'nalishi 1-kurs talabasi*

***Salohiddinova E'zoza***

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada og'iz bo'shlig'idagi eng keng tarqalgan kasalliklardan biri-tish kariesi haqida tushunchalar berilgan.Kariesning kelib chiqish sabablari,patogenezi,rivojlansh bosqichlari hamda tish to'qimalarida yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlar tahlil qilingan.Shuningdek, maqolada karies kovaklarining tasnifi-ya'ni G.V.Blek tanifi asosida kovaklarning joylashuviga ko'ra 5 ta asosiy sinfga bo'linishi bayon etilgan.Har bir sinfga xos bo'lgan klinik belgilar,davolash prinsiplari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tish kariesi, emal, dentin, karies kovaklari, G.V.Blek tasnifi, KPO, nazariyalar, tish qattiq to'qimasi.*

Tish kariesi(caries dentis)-patologik jarayon bo'lib,bu kasallik tishlar chiqqandan so'ng kuzatiladi,bunda tish qattiq to'qimalarini deminerilizatsiyasi va yemirilishi, hamda tish qattiq to'qimasida nuqson hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Karies bilan zararlanish 3 ta asosiy ko'rsatkich bilan baholanadi: 1.Kasalliklarning tarqalishi; 2.Tishlarning karies bilan zararlanish intensivligi; 3.Kasalliklarning o'sish intensivligi;

Karies tarqalishi-foiz (%) miqdorda ko'rsatiladi.Masalan: 100 ta tekshirilgan odamdan 60 tasida karies bor,karies tarqalishi 60% ni tashkil qiladi. Karies tezligi(intensivligi)-bunda 1ta tekshiruvchida karies,plomba,olingan tishlar soni(KPO) aniqlanadi. Masalan: ushbu auditoriyada 100 nafaar talaba bor,hammada KPO hisoblanadi va qo'shib,tekshirilganlar soniga bo'linadi.Agar hamma KPO lar 170 ga teng bo'lsa,bu raqam 100 ga bo'linadi va o'rtacha 1,7 chiqadi.Demak karies intensivligi 1,7 ga teng. JSST karies intensivligini 5 ta darajasini tavsiya qiladi: Juda



past(0-1,1), Past(1,2-2,6), O'rta(2,7-4,4), Baland(4,5-6,5), Juda baland(6,6 dan ko'p).

Karies kasalligining kelib chiqish nazariyalari. Kimyoviy parazitlar nazariyasi (MILLER 1884). Ushbu nazariyaga binoan kariesni ikkita bosqichi bor: A) tishlarni qattiq to'qimalarining demineralizatsiyasi, B) Mikroblarning salbiy ta'siri. Birinchi bosqichda og'iz bo'shlig'ida ovqat qoldiqlarini chirish jarayoni natijasida organik kislotalar paydo bo'ladi, u emalni anorganik qismini eritadi. Ikkinchi bosqichda emalni organik moddasi mikroorganizmlar fermentlari ta'sirida eriydi. ENTIN nazariyasi (fizio-ximik) Tish ikki muhit: so'lak va qon tomirlari orasida joylashadi va Entinni taxmini bo'yicha 2ta muhitni orasida osmotik toklar paydo bo'ladi. Bu toklarni yo'nalishi tashqaridan ichkariga, (emaldan pulpaga) markazdan intiluvchan bo'lib, asosan, kariesda kuzatiladi. Natijada emalni oziqlanishi buziladi, buni hisobiga emal kolloidlari burishadi, shishadi va uning o'tkazuvchanligi o'zgaradi. Me'yorida esa toklarni yo'nalishi teskari: pulpadan-emalga bo'ladi.

Karies kasalligi patogenez. Tez-tez va ko'p miqdorda uglevodlarni iste'mol qilish, og'iz bo'shlig'ida gigiyenasining pastligi kariesogen mikroorganizmlarni tish pellikulasiga mahkam biriktiradi va tish karashini hosil qiladi. Yopishqoq moddalar iste'mol qilganda, ular tishlarning retension nuqtalarida to'planadi, (fissuralar, chuqurchalar, kontakt yuzalari, plomba va protez yuzalari) natijada chirish va bijg'ish jarayoni boshlanadi. Tish karashini hosil bo'lishiga quyidagilar ta'sir qiladi: Tishning anatomic tuzilishi va uning atrof to'qimalar bilan o'zaro aloqasi; Ovqat ratsioni va chaynash intensivligi; So'lak va milk suyuqligi; Og'iz bo'shlig'ida gigiyenasi; Og'iz bo'shlig'idagi plomba va protezlar miqdori; tish-jag' anomaliyalari.

G.V.BLEK bo'yicha karies kovaklarining anatomic tasnifi. 1-sinf. Karies kovak molyar, premolyar tishlarning tabiiy fissuralari va hamma guruh tishlarning ko'r chuqurchalarida joylashadi. 2-sinf. Karies molyar va premolyar tishlarni kontakt yuzalarida joylashadi. 3-sinf. Karies kovak kesuvchi va qoziq tishlarning kontakt yuzasida bo'lib, u kesuv yuzasiga o'tmaydi. Tish burchaklari buzilmaydi. 4-sinf. Karies kovak qoziq va kesuvchi tishlarning kontakt va kesuv yuzalarida



bo'lib, tish burchagi buziladi. 5-sinf. Karies kovak barcha tishlarning bo'yin qismida joylashgan. 6-sinf. Karies kovak kesuv qirralari va chaynov tishlarining chaynov do'mboqchalarida (immune zonalarida) joylashadi. Klinikada topografik klassifikatsiyadan foydalaniladi: 1. Dog' shaklidagi karies; 2. Yuza karies; 3. O'rta karies; 4. Chuqur karies;

Dog' bosqichidagi karies (caries macula) yoki emal demineralizatsiyasi deb ataladi. Bu bosqich emalning chegaralangan yuzasida emal rangi o'zgarishi bilan namoyon bo'lib, bunda xira, oq, och-jigarrang, to'q jigarrang, hatto dog' qora bo'lishi ham mumkin. Yuza karies (caries superficialis) hosil bo'lgan dog' karies o'rnida destruktivo'zgarishlar natijasida hosil bo'ladi. Nuqson faqat emal qavatida joylashadi. O'rta kariesda (caries media) nuqson emal va dentin chegarasida joylashadi. Chuqur karies (caries profunda) karioz jarayon dentin orqali kirib, pulpaga (tish nerviga) yaqinlashadi. Kariesning anatomic tasnifi. Tish qattiq to'qimalarining zararlanish darajasiga ko'ra: emal kariesi, dentin va sement kariesi bo'ladi.

### **Xulosa**

Karies-tish to'qimalarining yemirilishiga olib keluvchi, keng tarqalgan va dolzarb stomatologik kasallikdir. U asosan og'iz bo'shlig'ida bakteriyalar faoliyati, noto'g'ri ovqatlanish, gigiyena qoidalariga rioya qilmaslik hamda organizmning umumiy holati bilan bog'liq. Sog'lom tishlar-insonning umumiy salomatligi va estetik ko'rinishning ajralmas qismi bo'lib, kariesga qarshi kurashish har bir insonning kundalik hayotidagi zarur odatga aylanishi lozim.

### **FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:**

1. Preklinik restavratsion stomatologiya. 616.314-085(075) Toshkent 2022.